



MUSTAQILLIK VA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHNCHA VA TAMOYILLAR KONSEPSIYASINING ISHLAB CHIQILISHI

Azlarova Ozodaxon

Samarqand davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti ikkinchi bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillik yillarida milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi, uning ilmiy-nazariy asoslari hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilingan. Milliy g'oya konsepsiyasining ishlab chiqilish bosqichlari, "O'zbek modeli"ning mafkuraviy poydevori sifatidagi ahamiyati, fuqarolik jamiyati va demokratik islohotlarning rivojlanishidagi roli yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik davrida milliy qadriyatlarning tiklanishi, ma'naviy yangilanish jarayonlari hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy istiqlol g'oyasining strategik vazifalari ilmiy asosda bayon etilgan..*

Kalit so'zlar: *Mustaqillik, milliy istiqlol g'oyasi, milliy qadriyatlar, tamoyillar, konsepsiya, O'zbek modeli, ma'naviyat, taraqqiyot, demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati, vatanparvarlik.*

Abstract: *This article analyzes the formation of the idea of national independence during the years of Uzbekistan's independence, its scientific and theoretical foundations, and its role in the development of society. The stages of development of the concept of the national idea, the importance of the "Uzbek model" as an ideological foundation, its role in the development of civil society and democratic reforms are highlighted. Also, the processes of revival of national values, spiritual renewal during the period of independence, and the strategic tasks of the idea of national independence in educating the younger generation in the spirit of patriotism are scientifically described.*

Keywords: *Independence, idea of national independence, national values, principles, concept, Uzbek model, spirituality, development, democratic reforms, civil society, patriotism.*

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida tub burilish yuz berdi. Ayniqsa, milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi va ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish mustaqillik davrida amalga oshirilayotgan islohotlarning mafkuraviy poydevorini tashkil etdi. Zamonaviy globallashuv sharoitida turli mafkuraviy tahdidlar, informatsion bosimlar kuchayib borayotgan bir paytda, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi jamiyatni birlashtirish, yoshlarni vatanparvar, erkin fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy istiqlol g'oyasi o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy merosi, milliy o'zlik va qadriyatlarini tiklash, ularni zamon talabiga mos ravishda rivojlantirishga imkon beruvchi mafkuraviy tizimdir. Ayniqsa, mustaqillik yillarida "O'zbek modeli" asosida olib



borilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar, davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarida milliy g'oya konsepsiyasi bosh yo'nalish sifatida namoyon bo'ldi. Shuningdek, istiqlool mafkurasi yosh avlod ongida komil inson idealini shakllantirish, ularni jaholatga qarshi ma'rifat, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham milliy istiqlool g'oyasi o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy yangilanishlarning mafkuraviy asosiga aylangan. Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ma'naviy merosni asrash va taraqqiyotga xizmat qildirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shu sababli milliy istiqlool g'oyasining ishlab chiqilishi, uning tamoyillari va jamiyat hayotidagi roli haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ushbu konsepsiyaning tarixiy bosqichlari hamda bugungi davr uchun dolzarbligini yoritish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, mustaqillik mafkurasini chuqur anglash va hayotga joriy etish O'zbekistonning barqaror taraqqiyoti, jamiyatning ma'naviy yuksalishi hamda xalqning birligiga xizmat qiladi.

Mustaqillik har bir xalqning eng yuksak orzusi, milliy g'urur va erkinlik ramzidir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy istiqlool g'oyasi jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishning asosiy mafkuraviy tayanchiga aylanadi. Bu g'oya xalqimizning o'zligiga qayutish, tarixiy qadriyatlarni asrab-avaylash va kelajak avlodni erkin fikirli, vatanparvar ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz o'zining mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng "komunistik g'oya"dan voz kechildi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida o'zgarishlar amalga oshirilib islohotlar olib boirildi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan xalqimiz o'z oldiga "Bizdan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish masalasini maqsad qilib qo'ydi"¹. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun yurtimizda bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik huquqiy va fuqarolik jamiyatini barpo qilish yo'lga qo'yila boshlandi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, jamiyatimiz soxta mafkuraning yakkahokimligidan butunlay xalos bo'ldi. Mamlakatda ma'naviy hayotning barcha jabhalarida uyg'onish jarayoni boshlandi. Qadimgi va boy tariximiz qayta tiklandi, milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar hamda qadriyatlarimizga munosabat yangicha ruhda shakllandi. Dinga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgarib, din ma'naviy qadriyat sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasida o'zbek tili davlat tili maqomiga ega bo'lib, bu masala qonuniy jihatdan mustahkamlandi. Shuningdek, turli tarixiy davrlarda mamlakatimizdan olib chiqib ketilgan, xalqimizning milliy boyligi hisoblangan san'at asarlari va qimmatli qo'lyozmalarni izlab topish hamda ularni yurtimizga qaytarish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

¹ Otabek G'aybullayev. "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" Fan va texnologiya nashriyoti (2019)





Mustaqillikning ilk yillaridanoq ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li sifatida besh tamoyil e'lon qilindi. Ushbu tamoyillar amaliy va konseptual jihatdan ishlab chiqilgan bo'lib, jahon miqyosida "O'zbek modeli" nomi bilan tan olingan taraqqiyot strategiyasining asosiy poydevorini tashkil etdi. Mazkur yondashuv mamlakatni izchil isloh etish bo'yicha aniq maqsad va vazifalarni belgilash imkonini yaratdi.

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi. Bu jarayon ikki bosqichda amalga oshdi: birinchi bosqich (1992–2000-yillar)da ko'ppartiyaviy tizimning vujudga kelishi va rivojlanishi uchun zarur siyosiy-huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Ikkinchi bosqich esa XXI asr boshlariga (2001–2007-yillar) to'g'ri kelib, bu davrda mamlakat parlamenti ikki palatali tuzilma – Senat hamda doimiy ishlaydigan Qonunchilik palatasiga o'tishi bilan xarakterlandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson huquq va erkinliklari ustuvor bo'lgan demokratik davlat barpo etish hamda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi.

Jamiyatning ma'naviy yangilansih, fuqarolar ongi, taffakurining milliy g'oya va mafkura asosida shakllantirishda davlatimizning yangilanishga oid olib borayotgan siyosati ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, "–Biz yoshlarga oid davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz"– deydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev – "Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizni yuksak fikirlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlartimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".²

Milliy istiqlol g'oyasi — bu mustaqillikni qo'lga kiritish, uni mustahkamlash va rivojlantirish, shuningdek, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun asos yaratadigan, xalq va millat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi maqsadlar va manfaatlar majmuidir. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov jamiyat taraqqiyotiga xos qonuniyatlarni chuqur tahlil qilib, milliy istiqlol haqidagi ta'limotni yaratdi.

Milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi va rivojlanishini tarixiy jarayonlar bilan uyg'un holda o'rganilganda, u bir nechta bosqichlarda namoyon bo'lgani ko'rinadi. Har bir bosqich mazkur g'oyani ishlab chiqish va rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ma'lum faoliyat sohasi bilan bevosita bog'liqdir.

Birinchi bosqich (1989–1991-yillar) — O'zbekiston mustaqillikka erishish arafasidagi davr bo'lib, unda sovet mafkurasining yakkahokimligidan voz kechish, kommunistik

² Mirziyoyev.Sh.M."Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz" 1-Jild.-T. "O'zbekiston"2017.146-bet.





g'oyaning mamlakat taraqqiyoti talablariga javob bermasligi, uni yangicha dunyoqarash asosida qayta ko'rib chiqish zarurati kun tartibiga qo'yildi.

Ikkinchi bosqich (1991–1992-yillar) — mustaqil O'zbekistonning demokratik taraqqiyotiga mos, zamon talablariga javob beradigan milliy mafkurani ishlab chiqish, uning huquqiy asoslarini yaratish jarayoni bilan xarakterlanadi.

Uchinchi bosqich (1993–2000-yillar) — jamiyat mafkurasini boyitish, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini, maqsad va vazifalarini shakllantirish, “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” konsepsiyasini yaratish bilan ajralib turadi.

To'rtinchi bosqich (2001–2007-yillar) — milliy istiqlol g'oyasining mazmuni va tamoyillarini takomillashtirish, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash davri bo'ldi.

Beshinchi bosqich (2007-yildan hozirgacha) — milliy istiqlol g'oyasini jamiyat ongiga chuqur singdirishning samarali yo'llarini shakllantirish, tushuncha va tamoyillarni yagona tizimga keltirish jarayoni bilan izohlanadi.

Milliy g'oya tufayli xalqimizda vatanparvarlik, milliy g'urur, o'zlikni anglash kabi yuksak tuyg'ular mustahkamlanib bormoqda. Soxta mafkuraviy qarashlar barham topib, “fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat” tamoyili asosida ma'naviy immunitet shakllantirilmoqda. Milliy g'oya konsepsiyasining ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich rivojlantirilishi fuqarolarda mustaqil fikrlash, erkin tafakkur yuritish, jamiyat hayotidagi islohotlarni to'g'ri anglashga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik va milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning asriy orzusi, milliy o'zligining poydevori hamda mamlakat taraqqiyotining mafkuraviy yo'nalishidir. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin jamiyatda yangicha tafakkur, milliy qadriyatlarni ustuvor qo'yish, vatanparvarlik va ijtimoiy hamjihatlik ruhida mafkuraviy muhit shakllandi. Milliy istiqlol g'oyasi nafaqat siyosiy mustaqillik, balki ma'naviy ozodlikning ham ifodasidir. U xalqni birlashtiradigan, yosh avlodni vatanparvarlik, mehnatsevarlik va tinchlik g'oyalarida tarbiyalaydigan muhim omildir. Shuning uchun mustaqillik mafkurasini chuqur anglash, uni hayotga tatbiq etish har bir fuqaroning yuksak burchi va mas'uliyatidir. Bugungi kunda O'zbekiston milliy istiqlol g'oyasining hayotbaxsh kuchiga tayanib, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Bu esa mustaqillik mafkurasini tarixiy yutuq bilan birga, kelajak taraqqiyotining ham ishonchli yo'lchi yulduzi ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

birinchidan: O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, milliy o'zlikni tiklash va ma'naviy yangilanishning keng imkoniyatlari shakllandi. Soxta mafkuraning inqirozga uchrashi, milliy qadriyatlar, til, din, tarixiy merosning tiklanishi va ularga ijobiy munosabatning shakllanishi jamiyat ma'naviy hayotida tub burilish yuzaga keltirdi;

ikkinchidan milliy istiqlol g'oyasi mustaqillik mafkurasining konseptual asosi sifatida O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida strategik yo'nalish vazifasini bajardi. “O'zbek modeli”ning besh tamoyili, fuqarolik jamiyati qurilishi,



ko'ppartiyaviylikning shakllanishi va demokratik institutlarning rivojlanishi mazkur g'oyaning amaliy samarasini ko'rsatdi;

uchinchidan, Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" konsepsiyasi jamiyatda milliy tafakkurni shakllantirish, ma'naviy immunitet yaratish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim mafkuraviy poydevori bo'ldi. G'oyaning bosqichma-bosqich rivojlantirilishi O'zbekistonning ideologik barqarorligini mustahkamladi;

to'rtinchidan, yangi O'zbekiston davrida milliy istiqlol g'oyasi o'z dolzarbligini saqlab qolgan holda, davlat siyosati, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy merosni asrash va modernizatsiya jarayonlarining ideologik asosiga aylandi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yoshlarni intellektual va ma'naviy barkamol etib tarbiyalash milliy g'oyaning zamonaviy bosqichdagi asosiy ustuvor yo'nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'aybullayev Otabek "Milliy g'oya va tarixi nazariyasi" "Fan va texnologiya nashriyoti"(2019)

2. Mirziyoyev.Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'tarmiz 1-jild.-T."O'zbekiston' (2017)

3. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4 (2024): 22-27.

4. Xoliqulov, Muhammad Qaxor O'G'Li. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.26 (2024): 384-388.

5. Kholikulov, Mukhammad. "Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism." (2023).

6. Muhammad, Xoliqulov. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUZ BERAYOTGAN GEOMAFKURAVIY JARAYONLAR TADQIQINING FALSAFIY-METADOLOGIK ASOSLARI." *Scientific and innovative research in the social and humanitarian sphere* 1.3 (2025): 105-109.

7. Xoliqulov, M. Q., & Jumanov, H. N. (2025). GLOBALIZATSIYA JARAYONINING SAN'AT VA BADIY ADABIYOT VOSITASIDA MILLIY QADRIYATLARGA TRANSFORMATIV TA'SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 40(1), 203-210.

8. Xoliqulov, M. Q., and H. N. Jumanov. "GLOBALIZATSIYA JARAYONINING SAN'AT VA BADIY ADABIYOT VOSITASIDA MILLIY QADRIYATLARGA TRANSFORMATIV TA'SIRI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 40.1 (2025): 203-210.



9. Abduqodirov, Asilbek, and Muhammad Xoliqulov. "YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI." *Академические исследования в современной науке* 3.27 (2024): 100-105.

10. Kholikulov, Muhammad, and Hasan Jumanov. "THE CONCEPT OF PERSONAL PERFORMANCE IN THE THOUGHT OF ABU MANSUR MATURIDI." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 252-261.

11. Azlarova, Ozodaxon Xasanxonovna. "DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA)." *Analysis of world scientific views International Scientific Journal* 3.1 (2025): 141-149.

12. O'G'Li, Xoliqulov Muhammad Qaxor, and GG'Ofirova Muxlisa. "Ofur Qizi." *A. NAVOIYNING AR." BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI QARASHLARI."* *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* 4 (2024): 24-28.